

**MADANIY O'ZIGA XOSLIKNI SHAKLLANTIRSHDA TILNING
AHAMIYATI**

Eshmurodova Dildor Normuratovna

Pedagogika kafedrasinng o'qituvchisi. Ilmiy rahbar.

Mamadiyeva Marjona Baxtiyor qizi

*Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti "Pedagogika" yo'nalishi 2-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat, madaniy o'ziga xoslik, madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishda tilning ahamiyati, bir-biri bilan uzviy bog'liqligi hamda roli qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi haqida boradi. Madaniyat insonning o'ziga xosligini belgilovchi xususiyat bo'lib, u o'zini va ular bilan tanishgan jamoani qanday ifodalashiga hissa qo'shadi. Madaniyatni keng ma'noda bir guruh odamlar tomonidan yaratilgan, ajdoddan-avlodga o'tadigan turmush tarzi yig'indisi sifatida ko'rish mumkin. Til madaniyatning ajralmas qismidir. Qadriyatlar, e'toqodlar va urf-odatlarini yetkazish yordamchisi sifatida til katta ahamiyatga ega. Tilni yo'qotish madaniyat va o'zlikni yo'qotish bilan tengdir.

Kalit so'zlar: madaniyat, madaniy o'ziga xoslik, til va madaniyat, tilning o'rni, Alisher Navoiy, "til-millat ko'zgusi".

Аннотация: В этой статье речь пойдет о культуре, культурной идентичности, важности языка в формировании культурной идентичности, его взаимосвязи и роли. Культура-это определяющая черта личности человека, которая способствует тому, как он представляет себя и сообщество, с которым он идентифицирует себя. Культуру в широком смысле можно рассматривать как совокупность образов жизни, созданных группой людей, передаваемых от предка к потомку. Язык-неотъемлемая часть культуры. Язык имеет большое значение как помощник в передаче ценностей, убеждений и традиций. Потеря языка приравнивается к потере культуры и идентичности.



Ключевые слова: *культура, культурная самобытность, язык и культура, роль языка, Алишер Навои, “язык-зеркало нации”.*

Madaniyat bilan madaniy o'ziga xoslik tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Xususan “Madaniyat” tushunchasi muayyan tarixiy davr, jamiyat, elat va millat shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xosligini izohlash uchun qo'llaniladi. Madaniyat odamlarning fikr mulohazalari o'zgarishi, o'z dunyoqarashi shakllanishi, o'ziga xosliklarni yaratish, o'z e'tiqodlari an'analari, urf-odat va qadriyatlarini ifodalaydigan ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Yoki nemis sotsiologi Georg Simmelning fikricha madaniyat “tarix davomida ob'ektivlashtirilgan tashqi shakllar orqali insonning shakllanishini”anglatadi. Shunday qilib, madaniyat juda keng talqin qilinadi. Madaniyat arab tilidan olingan bo'lib, madina (shahar) degan ma'noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini 2 turga: birinchisi badaviy yoki sahroi turmush, ikkinchisini esa madaniy turmush deb atashgan. Badaviylik –ko'chmanchi tarzda dasht-u sahrolarda yashovchi xalqlarga nisbatan, madaniy turmush esa shaharda o'troq tarzda yashab, o'z turmush tarziga ega bo'lgan xalqlar nazarda tutilgan. O'rta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Sino va boshqa mutafakkirlar shahar turmush tarzini jamoaning yetukligi sifatida fikr yuritganlar. Masalan: Abu Nasr Farobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra “oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi” bunday yetuklikka esa faqatgina shahar jamoasi orqali erishiladi. Farobiyning ta'kidlashicha, madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunar ozod, hamma tengdir, insonlar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi xohlagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. XIX-asrning ikkinchi yarmida ma'rifatning cho'qqisiga chiqqan ma'rifatparvarlik harakatining namoyondalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar va boshqa bobokalonlarimiz xalqni madaniyatli qilishning omili ilm ma'rifatni egallashda deb bildilar. Masalan, Furqat fikricha ilm fan bir mash'al bo'lib, insoniyatning baxt saodat yo'lini yoritib turishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat sohasida ham bir qancha islohotlar olib borildi.



Shaklan ham, mazmunan ham madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash, rivojlantirish sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni shakllantirish uchun ham alohida e'tibor berilmoqda. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga, an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf-odatlarimizni, tarixiy, ilmiy, madaniy, ma'anviy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "O'ziga xoslik" tushunchasi psixologiya, madaniy va ijtimoiy antropologiya kabi fanlarda keng qo'llaniladi. Madaniy o'ziga xoslik bu shaxsning ijtimoiy-madaniy makonda o'z o'rnini aniqlash, anglash va o'zini tevarak atrofdagi dunyoda erkin yo'naltirish imkonini beradigan ijtimoiy guruhga mansubligini anglashidir. Shaxsning boshqa shaxsga bo'lgan ehtiyoji har bir inson o'z hayotiy faoliyatida ma'lum bir tartibga muhtojligidan kelib chiqadi, u bunga faqat boshqa odamlar jamoasida erisha oladi. Buning u shu jamiyatda hukmron bo'lgan ma'naviy elementlari, odatlari, me'yorlari, qadriyatlari va atrofidagi odamlar tomonidan qabul qilingan boshqa aloqa vositalarini ixtiyoriy ravishda qabul qilishi kerak. Jamodagi ijtimoiy hayotning barcha ana shu ko'rinishlarini o'zlashtirib olish inson hayotiga tinchlik, xotirjamlik va tartib beradi, shuningdek uni muayyan madaniyatga beixtiyor jalb qiladi. Shuning uchun, madaniy o'ziga xoslikning mohiyati insonning o'ziga xos madaniy me'yorlar va xatti-harakatlar namunalari, qadriyat yo'nalishlari va tilini ongli ravishda qabul qilishida, o'zligini ma'lum bir jamiyat va jamoada o'z o'zidan qabul qilingan madaniy xususiyatlar nuqtai nazaridan tushunishidir. Shaxsning o'ziga xosligi o'zi tegishli bo'lgan ijtimoiy-madaniy guruhga nibatan qarashlari va munosabati natijasida vujudga keladi. Lekin inson bir vaqtning o'zida ko'plab ijtimoiy-madaniy guruhlarining a'zosi bo'lganligi tufayli, u bir vaqtning o'zida bir nechta xosliklarga ega. Bu uning jinsi, millati, irqi, dini, kasbi va hayotiy faoliyatida boshqa jihatlarida aks ettiradi. Bu xosliklar bizni boshqa odamlar bilan bog'laydi, ammo shu bilan birga, har bir insonning tafakkuri, fikrlash qobiliyati va o'ziga xos tajribasi bizni bir-birimizdan ajratib turadi. Ma'lum darajada madaniyatlararo muloqotni bir-biriga qarama-qarshi o'ziga xosliklarning munosabatlari sifatida ko'rish mumkin, chunonchi suhbatdoshlarning o'ziga xosligi



bir-birini to'ldiradi. Shunday qilib, suhbatdoshning shaxsida noma'lum va notanish narsa tanish va tushunarli bo'lib qoladi va biz suhbatdoshimizdan bizga mos keladigan xatti-harakatlar va gap-so'zlarni kuta boshlaymiz. O'ziga xosliklarning o'zaro ta'siri aloqadagi munosabatlarni muvofiqlashtirishni yengillashtiradi shuningdek, muloqot davomiyligini ta'minlaydi. Hamda, u yoki bu turdagi madaniy o'ziga xoslik aloqa uchun to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Suhbatdoshning kimligiga qarab, uning nutq uslubi, muomala madaniyati, muloqot mavzulari, imo-ishoralari o'rinli yoki o'rinsiz ko'rinishi mumkin. Shu tarzda madaniyatlararo muloqotning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan madaniy o'ziga xosliklarning xilma-xilligi ayni paytda unga to'sqinlik qiladi. Madaniyatlararo muloqotda madaniy o'ziga xoslik ikki tomonlama vazifani bajaradi. Birinchidan, muloqot qiluvchilarga bir-biri haqida ma'lum bir fikrni shakllantirishga, suhbatdoshlarning xatti-harakati va qarashlarini o'zaro bashorat qilishga imkon beradi, muloqotni yengillashtirdi. Madaniyatlararo muloqot madaniy o'ziga xoslikka yordam beruvchi vazifasi hisoblanadi. Ikkinchidan, uning cheklovchi vazifasi tezda o'zini namoyon qiladi, ya'ni aloqa jarayonida qarama-qarshiliklar, kelishmovchilik va nizolar paydo bo'ladi, shu sababli madaniy o'ziga xoslik mumkin bo'lgan o'zaro tushunish doirasiga tushuriladi va turli xil kelishmovchilik, nizolarga olib keladigan jihatlar bartaraf etiladi. Turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonida dunyoning turli madaniy o'ziga xos qarashlari to'qnashadi, bunda suhbatdoshlarning har biri dastlab bu qarashlardagi farqlarni anglaydilar, har biri o'z g'oyalarini normal deb hisoblaydi, boshqasining g'oyalarini esa g'ayritabiiy. Madaniyatlararo aloqalar ko'pincha o'zaro madaniyatlarning bir-biriga kuchli ta'siri bilan tugaydi. Bunday ta'sir orqali madaniy innovatsiyalar bir madaniyatdan boshqasiga o'tadi. Har qanday jamiyat uchun bu kabi madaniy aloqalar ijobiy va salbiy ma'noga ega. Bir tomondan, ular madaniyatlarning o'zaro boyishiga, xalqlarning yaqinlashishi va shakllanishiga hissa qo'shadi. Boshqa tomondan, bunday ta'sir muayyan jamoaning madaniy o'ziga xosligini yo'qotish xavfini oshiradi. Bunday jarayonlarning ko'rinishlaridan biri madaniy o'ziga xoslikdagi o'zgarishlardir. Til va madaniyat o'rtasida uzviy hamkorlik mavjuddir. Bu borada V.F.Gumbold madaniy rivojlanish jarayonining natijalari madaniyatning tilga ta'sirini tekshirishdan ko'ra



ko'proq, tilning madaniytaga ta'sirini tekshirishga bog'liq bo'lishini yozadi. Turli mamlakatlar olimlari tomonidan til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan turli izlanishlar olib borilmoqda. Har bir millatning o'zligini anglatadigan, ifodalaydigan oynasi bu uning ona tili va adabiyotidir. Ona tili - millatning ruhi, shukhi, uning or-nomusi, ma'naviy, madaniy qiyofasi, orzu-umidalarining namunasidir. Til millatning birligi va birdamligining timsoli. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoni borligini ta'minlaydi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror tili ham bo'ladi. Inson uchun uning ona yurti, ota-onasi, oilasi va qarindosh urug'lari qanchalik qadrlil bo'lsa, uning tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki go'dak ham o'z yurtini, ota-onasini, dunyoni o'z tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzandni tarbiya qilishda onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayoti davomida o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvida, komil inson bo'lib yetishishida tilning o'rni katta ahamiyatga ega. Shu bois tilni onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni saqlash va rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Har bir xalqning tili, uning tarixiy xotirasi, milliy o'ziga xosligi va madaniy merosini ifodalaydi. Til orqali millatning psixologiyasi, urf-odati, fikrlash tarzi, ijodiy ishlash usullari, axloqiy va ma'naviy holati kabi muhim xususiyatlar paydo bo'ladi. Turklarning buyuk ma'rifatparvar ijodkori Ismoil Gaspirali aytganidek: "Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidur. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur". Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Bobokalonlarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Masalan: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqa bobkalonlarimiz o'zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo'shganlar. Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Sababi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebeaho xazinasini, tunganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, rivojlanishi, uning madaniy, ma'naviy merosi, urf-odati va an'analari unda mujassam bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdig'aniyevich Karimovning



ta'biri bilan aytganda "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-milliy bog'liqlik til orqali vujudga keladi". Tilsiz millat rivojlanmaydi, shakllanmaydi, taraqqiy etmaydi. Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy bobomizga tegishli quyidagi so'zlar hammamizga tanish: "Ko'ngil qulfi mahzanin qulfi til va ul qulfin kalitin so'z bil". inson qalbining xazinasini til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir. Ko'plab adiblarimiz til haqida o'zlarining hikmatli so'zlarini aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan: "Til-millat ko'zgusi", "Til millatning bebaho boyligi" va boshqalar. Til- millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi balki xalqning madaniyati, urf-odat, an'ana va uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlab qolishi, yanada shakllantirish uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu tufayli ham har bir xalq o'z tilini saqlab qolish uchun harakat qiladi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyatini uning tilida o'z ifodasini topadi. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotgani barchamizga ma'lum. Biz o'z ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Til va madaniyat o'rtasida uzviy hamkorlik mavjuddir. Bu borada V.F.Gumbold madaniy rivojlanish jarayonining natijalari madaniyatning tilga ta'sirini tekshirishdan ko'ra ko'proq, tilning madaniytaga ta'sirini tekshirishga bog'liq bo'lishini yozadi. Turli mamlakatlar olimlari tomonidan til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan turli izlanishlar olib borilmoqda.

Til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini shakllantiradi va aks ettiradi. Til madaniyatning ajralmas qismi. Til orqali biz madaniy merosni saqlaymiz va avlodlarga yetkazamiz. Shuningdek, til madaniyatlararo muloqotda muhim rol o'ynab, boshqa xalqlar madaniyatini tushinish va hurmat qilish,



o'rganishga yordam beradi. Til milliy o'ziga xoslikning tarkibiy qismi bo'lib, u millatning o'zligini anglash saqlash va shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ona tilida muloqot qilish huquqiga ega bo'lmaslik, odamlar o'rtasidagi insoniy va tabiiy munosabatlarni buzish xavfini tug'diradi. Shuningdek, o'z ona tilisini yaxshi bilgan shaxs boshqa tillarni osonroq o'rganadi va bu tilning madaniy o'ziga xosligini boyitadi. Til millatning ma'naviy va madaniy ajralmas qismi bo'lib, har bir xalqning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy vositalardan biridir. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi quyidagicha: Til xalqning o'zligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. U millat vakillarini birlashtirib, o'ziga xos madaniy merosni shakllantirishda yordam beradi. 2. Til orqali xalqning qadimiy urf-odatlarini, an'analari, afsonalari va qadriyatlarini keyingi avlodlarga yetkaziladi. 3. Har bir tilga xos bo'lgan ifoda vositalari, so'zlashuv shakllari o'ziga xos madaniy tafakkurni shakllantiradi. 4. Til jamiyat ichida aloqa qilish, madaniyatlararo muloqot olib borish, hamjihatlikni ta'minlash va milliy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tilning madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishdagi roli katta. Masalan: Adabiyot va san'at - har bir xalqning adabiyoti va san'ati o'z ona tilida yaratilgan asarlar orqali boyitiladi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Diniy va falsafiy qarashlar - har bir til orqali xalqning diniy qarashlari, fikrlash va falsafiy tushunchalari shakllanadi va rivojlanadi. Ilm-fan va ta'lim - ona tili orqali ta'lim olish milliy tafakkurni, ongini shakllantiradi va ilmiy merosni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Til madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishda asosiy omil bo'lib, u millatning tarixi, kelib chiqishi, rivojlanishi, madaniyati va ma'naviyatini yaqqol namoyon qiladi. Shuningdek, til madaniyatni ifodalashning ajralmas qismi bo'lib, qadriyatlar, e'tiqodlar va urf-odatlarni yetkazish vositasi sifatida u katta ahamiyatga ega. Hamda til guruhning o'ziga xosligi va birdamlik tuyg'ularini rivojlantiradi. Til madaniy an'analarni va umumiy qadriyatlarini yetkazish va saqlash uchun vositadir. Tilni saqlash va rivojlantirish orqali biz madaniy merosimizni asrab-avaylaymiz va kelajak avlodga yetkazamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev M. Madaniyatshunoslik asoslari. Farg'ona, 1998.
2. Gulmetov E. Madaniyatshunoslik. T: 2001.



3. Xayrullayev M. M; SHorahmedov D.A., Madaniyat va meros. T: 1973.
4. B.To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi. T: 2010.
5. N.N. Azizxodjayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent 2006.
6. С.А.Хайдаров. (2020). Педагог уқитувчилара ахборот-коммуникатсия куникмасини шакллантириш асослари.
- 7.Хайдаров.С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда куллашнинг методик талаблари.